

MDH DAVLATLARINING TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKHLARI.**Bo'ronova Farida Ikrom qizi***Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistri**Ilmiy rahbar – prof. Y.X. Gaffarov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada MDH mamlakatlarining barqaror rivojlanishi uchun eng muhim omil hisoblangan ta'lif sohasidagi MDH davlatlarining o'zaro hamkorligi tahlil qilingan. Shuningdek, MDH ga a'zo davlatlarning ta'lif tizimlarida umumiy ta'lif makonini yaratish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: MDH ga a'zo davlatlar, ta'lif, HPA, akkreditatsiya, , Davlat Dumasi, Minsk shahri, umumiy ta'lif makoni, Harakatlar rejasi.

Bugungi kunda ,bilimlarning rivojlanishi va raqamli jamiyatning shakllanishi ta'lif va fanni yuqori bosqichga olib chiqmoqda.Har qanday mamlakatning yangi bilim va innovatsiyalar yaratishi bular hammasi birga XXI asrda rivojlanishning muhim omillariga aylandi. Bu ko'p jihatdan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi mintaqaviy davlat birlashmalarining faoliyatiga taalluqlidir. MDH mamlakatlari o'tasidagi ta'lif sohasidagi hamkorlik jarayoni jadal rivojlanayotgan bir paytda , milliy tizimlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida jahon ta'lif tizimiga integratsiyalashuv jarayoni eng samarali usullaridan biri bo'lib kelmoqda. SSSR parchalanganidan keyin respublikalar umumiy madaniy va tarixiy merosga asoslangan umumiy ta'lif makoniga birlashtirildi. Bu tashkilot o'z navbatida, Hukumatlararo Assambleya (HPA) tomonidan qo'llab quvvatlandi, uning asosiy vazifasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari, xususan, ta'lif sohasidagi qonunlarni yaqinlashtirish edi.

MDHda Ta'lif sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolangan 1992 yildan buyon Hamdo'stlik doirasida ta'lif faoliyatining ko'p jihatlari bo'yicha o'nga yaqin ko'p tomonlama davlatlararo shartnomalar va hamkorlik dasturlari tuzilgan bo'lib, ular orasida qo'shma quyidagi masalalar bo'yicha hujjatlar: Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining yagona (umumiy) ta'lif makonini shakllantirish bo'yicha hamkorlik; o'rta (umumiy) ta'lif, boshlang'ich kasb-hunar va o'rta kasb-hunar (maxsus) ta'lif to'g'risidagi hujjatlarning o'zaro tan olinishi va ekvivalentligi; oliy/oliy kasb-hunar ta'lifi to'g'risidagi hujjatlarni o'zaro tan olish; mutaxassislarning malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash; ta'lif muassasalarini litsenziyalash, attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish; MDHga a'zo davlatlarning ta'lif sohasida axborot almashinuvi; kattalar ta'limi; universitet filiallarini tashkil etish va faoliyat yuritish tartibi va boshqalar.

Shu bilan birga, 1992-yilning may oyining o'zida MDHning o'nta davlati hukumat rahbarlari ta'lif sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzoladi. Bitimni amalga

oshirish maqsadida MDHga a'zo davlatlar ta'lif vazirlari tomonidan "MDHga a'zo davlatlar ta'lif vazirlari konferensiysi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Bu nizomda Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi va Ukraina ta'lif (va fan) vazirlari ishtirok etadilar. MDHga a'zo davlatlar ta'lif vazirlari konferensiysi. 1992 va 1993 yillarda MDHga a'zo davlatlar ta'lif vazirlarining ikkita konferensiysi bo'lib o'tdi, ular ta'lif standartlarini ishlab chiqish, ta'lif hujjalarning ekvivalentligini tan olish va belgilash mexanizmlarini yaratish va bir qator boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qildilar. Lekib bu qarorlar bajarilmay qoldi. MDHga a'zo davlatlarning markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ta'lif sohasidagi hamkorlikning me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish bo'yicha hech qanday chora ko'rilmagan edi.

MDH davlatlari endilikda umumiyligida ta'lif makonini yaratishni maqsad qildi va buni amalga oshirish maqsadida 1997-yil yanvar oyida MDHga a'zo davlatlar hukumatlari tomonidan MDHning yagona (umumiyligida) ta'lif makonini shakllantirish konsepsiysi va MDHning yagona (umumiyligida) ta'lif makonini shakllantirish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolangan hamkorlikka xizmat qildi va ta'lif sohasida yangi turtki bo'lib, uni rivojlantirishning aniq yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini belgilab berdi. Shunga o'xshash konsepsiyalari Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash hamda Hamdo'stlik doirasida ularning malakasiga oid hujjalarning tengligini o'zaro tan olish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib berdi.

Shuningdek, Kengash tashabbusi bilan MDHning yagona (umumiyligida) ta'lif makonini shakllantirish kontseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlatlararo dastur tayyorlandi va Davlat Dumasining 2001 yil 29 noyabrdagi qarori bilan tasdiqlandi. Bu dastur ta'lif tizimidagi barcha islohotlarni ko'rib chiqdi va o'z faoliyati davomida 22 ta yig'ilish o'tkazdi, unda Davlatlararo dasturning barcha masalalari muhokama qilindi. Ularning muhim qismi Davlat Dumasi majlisida ko'rib chiqish uchun taqdim etildi. Shu o'rinda aytish joizki, bu kengashda 28 ta hujjat imzolandi va bu hujjalarning kelgusi MDH davlatlarning ta'lif tizimidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamladi.

MDHga a'zo davlatlarning yagona ta'lif makonini shakllantirish bo'yicha bir qancha chora va tadbirlar ko'rildi. Ular o'zlarining diqqat- e'tiborini ta'lif muassasalarini, institutlar va ilmiy markazlarga asosiy ta'lif maqomini berish to'g'risida qarorlar qabul qildi. Misol tariqasida, ushbu maqom o'n ikkita oliy o'quv yurtiga, jumladan, Belarus Respublikasining beshta universitetiga, yetta universitetga, Kattalar ta'limi institutiga va Rossiya Federatsiyasi Ta'lif Federal agentligining qiyosiy ta'lif siyosati markaziga, Malaka oshirish instituti va Armaniston Respublikasi Kompyuter fanlari bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash institutiga berildi. Bunday imkoniyatlar bu kabi davlatlarda ta'lif sifatini oshirishga xizmat qildi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, MDH davlatlari endilikda kattalar ta'lif tizimiga ham o'zining diqqatini qaratdi. Bu masalalar Kengashda ko'rib chiqildi. Kengash

kattalar ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Kengash tashabbusi bilan Davlatlararo dasturga MDHga a'zo davlatlarda Kattalar ta'limini rivojlantirish konsepsiysi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha taklif kiritildi. Keyinchalik, MDHga a'zo davlatlar ta'lim vazirlarining VIII konferensiyasida (2003 yil 13 may, Moskva) kattalar ta'limini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqildi va kattalar ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi va MDHga a'zo davlatlardagi ta'lim faoliyatida amalga oshirilgan ishlar tufayli 2006 yil 25 mayda Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Hukumat rahbarlari kengashi yig'ilishida MDHga a'zo davlatlarda kattalar ta'limini rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida qaror imzolandi.

Mazkur konsepsiya MDHning yagona (umumiy) ta'lim makonini shakllantirish bo'yicha, kattalar ta'limi sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar ishlab chiqilgan. Konsepsiya muvofiq, kattalar ta'limi MDHga a'zo davlatlarda ta'lim tizimining zarur elementi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, u har bir fuqaroning butun umri davomida uzlusiz ta'lim olish huquqini kafolatlaydigan yaxlit tizim sifatida ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Konsepsiya qoidalarini amalga oshirish, kattalar ta'limining milliy tizimlarini rivojlantirish, shaxsning doimiy o'zini-o'zi takomillashtirishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishi uchun sharoit yaratadi. Bu islohotlar kattalar ta'limini yanada yangi bosqichga olib chiqdi.

Ayni paytda, Kengash Qo'shma davlat qo'mitasining 2009-yil 22-maydagi 2010-yilgacha bo'lgan davrda MDHga a'zo davlatlarning ta'lim sohasida yagona ta'lim makonini yanada rivojlantirish va hamkorligini ta'minlash bo'yicha Harakatlar rejasি to'g'risidagi qarorlarini amalga oshirish bo'yicha ish olib bormoqda. Bu Harakat rejasи ham MDH ga a'zo davlatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va shu davlatlarda ta'limni yuksalishiga olib keldi.

2018-yilning 4–5-oktabr kunlari Qирғизистон Respublikasining poytaxti Bishkek shahrida bo'lib o'tadigan MDHga a'zo davlatlar o'qituvchilari va ta'lim xodimlarining V qurultoyi bo'lib o'tadi. Bu Kongressda MDHga a'zo davlatlarning ta'lim tizimini barqaror rivojlanish maqsadlari va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Ta'lim maqsadining alohida jihatlari bilan bog'liq masalalar ham yoritilgan.

Shu kabi hamkorlik kengashlari yig'ilishi 2023 yil 17 noyabr Minsk shahrida bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Rossiya, Belarus, Armaniston, Qozog'iston, Qирғизистон, Tojikiston, shuningdek, MDH Ijroiya qo'mitasi vakillari ishtirop etdi. Muvofiqlashtiruvchi kengashda Andrey Pashtetskiy, Aleksandr Smykov va Vladislav Rojkov ishtirop etdi. Ittifoqning xalqaro fan festivali ishtiropchilari Rossiya va Belorussiyadagi ilg'or ilmiytadqiqot institutlari faoliyati bilan tanishdilar, qo'shma amaliy tadqiqotlar va taqdimotlarda ishtirop etdilar, shuningdek, ilmiy sohalarni kelgusida rivojlantirish bo'yicha o'z modellarini taklif qildilar.

Xulosa qilib aytganda, MDH davlatlarining yaqinlashuviga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri ta'lim sohasidir. Ta'lim sohasidagi ko'plab hamkorlik aloqalari MDH

davlatlarini tubdan o'zgarishiga olib keldi va juda ko'plab imkoniyatlarni ochib berdi. Shu bilan birga, ta'lif tizimidagi islohotlar ta'lif uchun yangicha yondashuvlarni ishlab chiqdi va MDH davlatlariga a'zo bo'lgan davlatlar uchun umumiy ta'lif makonini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Владимир Иванович Абрамов "СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В РОССИИ И СТРАНАХ СОДРУЖЕСТВА НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ (СНГ): НА ПУТИ К ОБЩЕМУ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМУ ПРОСТРАНСТВУ".
2. В. А. Клименко" СОТРУДНИЧЕСТВО СТРАН СНГ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ИНТЕРЕСАХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ".
3. <https://cis.minsk>
4. Ващекин Н. П., Урсул А. Д. Ориентиры опережающего образования / Н. П. Ващекин, А. Д. Урсул // Социологические исследования. – 2000. – № 5.
5. <https://scienceid.net/news>.
6. В.И. БАЙДЕНКО "Некоторые тенденции развития систем высшего образования в странах СНГ".